XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-iyul VI-108-50-11-169-K/24 Farg‘ona shahar

Farg‘ona shahrida 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi haqida

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini ta‘minlash, iqtisodiyot tarmoqlarida rasmiy band bo‘lgan fuqarolarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-7 sonli qarori qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan mas‘ul vazirliklar, idoralar, tijorat banklari, viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi ma‘qullangan.

Shuningdek, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan o‘tkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini ta‘minlashi belgilangan.

Shunga ko‘ra, Farg‘ona shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 6-fevraldagi 32/01-01-07-194-sonli xat bilan murojaat qilib, Farg‘ona shaharda 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi loyihasi (keyingi o‘rinlarda – Dastur loyihasi) va bu borada amalga oshiriladigan ishlar, ko‘riladigan ta‘sir choralari yuzasidan axborot kiritib, mazkur masalani xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashida muhokama qilish va Dastur loyihasini qabul qilishni so‘ragan.

Xususan, Farg‘ona shaharda 2024-yil uchun aholini daromad keltiradigan mehnat bilan band qilish bo‘yicha oyma-oy va tarmoqlar kesimida maqsadli ko‘rsatkichlari shakllantirilib, shunga ko‘ra shahar bo‘yicha 15 845 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish rejalashtirilgan.

Jumladan, investisiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga 3 060 nafar, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligi sohasida 11 739 nafar, moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga 10 000 nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan aholini biznesga jalb qilish hisobiga jami 9 030 nafar, shundan oʻzini oʻzi band qilish hisobiga 7 000 nafar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga 1000 nafar, yangi korxonalarni tashkil etish hisobiga 430 nafar, dehqon xoʻjaliklari hisobiga 600 nafar aholini doimiy ishlarda band qilish koʻzda tutilgan.

Dasturda belgilangan parametrlar, prognoz koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida, tizimli va samarali bajarilishida albatta joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, taʻlim muassasalari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari va keng jamoatchilik oʻrtasida oʻzaro hamkorlik va javobgarlik mexanizmlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Shaharda tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash va yangi ish oʻrinlarini yaratishga qaratilgan imtiyozli resurslar, mexanizm va yengilliklardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi bandligini taʻminlash, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish, aholi bandligini taʻminlash boʻyicha muvofiqlashtirilgan samarali ishlarni amalga oshirishda davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlarining masʻuliyatini yanada kuchaytirish, bu borada deputatlik va jamoatchilik nazoratini oʻrnatish maqsadida hamda Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Fargʻona shahrida 2024-yilda aholi bandligini taʻminlash dasturini tasdiqlash haqida”gi qarori loyihasi Fargʻona shahar adliya boʻlimi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan oʻtkazish yuzasidan 2024-yil 22-may kungi 2-sonli xulosasini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidyentining 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda yangi ish oʻrinlarini tashkil etish va aholi bandligiga koʻmaklashish dasturi toʻgʻrisida”gi PQ-7 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan, viloyatlar hokimliklari ikki hafta muddatda tuman (shahar)lar kesimida choraklik maqsadli koʻrsatkichlarni ishlab chiqib, ularning mahalliy Kengashlarda muhokamadan oʻtkazilishini va hududiy (manzilli) dasturlarning qabul qilinishini taʻminlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shaharda 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish boʻyicha shakllantirilgan prognoz koʻrsatkichlari toʻgʻrisida Fargʻona shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi boshligʻI vazifasini bajaruvchisi Tursunaliyev Saydullo Toirjonovichning axboroti maʻlumot uchun qabul qilinsin.

4. Shaharda 2024-yilda aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish boʻyicha prognoz koʻrsatkichlari (keyingi oʻrinlarda – maqsadli koʻrsatkichlar) shahar ishchi komissiyasi tomonidan koʻrib chiqilib, tasdiqlanganligi maʻlumot uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

2024-yilda aholining doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini taʻminlashning yigʻma maqsadli koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga yangi ish oʻrinlarini tashkil etishning maqsadli koʻrsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

2024-yilda xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish hisobiga aholi bandligini taʻminlash va yangi ish oʻrinlarini tashkil etishning maqsadli koʻrsatkichlari

3-ilovaga muvofiq;

2024-yilda qishloq xoʻjaligi sohasida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilishning maqsadli koʻrsatkichlari 4-ilovaga muvofiq;

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli koʻrsatkichlari 5-ilovaga muvofiq;

2024-yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga koʻmaklashish va ish beruvchilarni ragʻbatlantirish boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlarning maqsadli koʻrsatkichlari 6-ilovaga muvofiq;

yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda 9 030 ming nafar aholini biznesga jalb qilishning maqsadli koʻrsatkichlari 7-ilovaga muvofiq;

2024-yilda davlat maqsadli jamgʻarmalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli koʻrsatkichlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Maqsadli koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagi idoralar rahbarlari tegishli yoʻnalishlar boʻyicha masʻul ekanligi belgilab qoʻyilsin:

Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov, Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (A.Berdiqulov) xizmat koʻrsatish yoʻnalishi boʻyicha 10 000 ta ish oʻrni yaratishga;

Fermer va dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi (E.Kamolov)ga - qishloq xoʻjaligi yoʻnalishi boʻyicha 1 268 ta ish oʻrni yaratishga;

Shahar hokimining oʻrinbosari J.Baxtiyorov, shahar Qurilish va uy-joy va kommunal xizmat koʻrsatish boʻlimi (L.Gʻulomov)ga - qurilish yoʻnalishi boʻyicha 1 517 ta ish oʻrni yaratishga;

Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov, Shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tusunaliyev) - bandlik organlari tomonidan aholi bandligini taʻminlash va yaratilgan ish oʻrinlari hisobini yuritish boʻyicha;

Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov, Shahar hududidagi tijorat banklari rahbarlari bilan birgalikda - yangi moliyaviy xizmatlarni joriy qilish, shu jumladan mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2024-yilda shaharda 9 ming 30 nafar aholini biznesga jalb qilish boʻyicha.

Bunda, ushbu bandda koʻrsatilgan masʻul boshqarma, idora va xoʻjalik birlashmalari hamda tuman (shahar)lar hokimliklari har oy yakuniga koʻra keyingi oyning birinchi sanasiga qadar soliq organlari maʻlumotlar bazasi bilan solishtirgan holda tegishli maʻlumotlarni umumlashtirish uchun Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasiga taqdim etib boriladi.

7. Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov, Shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tusunaliyev), Soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev), Statistika boʻlimi (Sh.Tojimatov) - masʻul davlat organlari va tashkilotlari tomonidan maqsadli koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida, samarali va tizimli bajarilishini nazorat qilsin va muvofiqlashtirib borsin.

Bunda, har haftada “Hokimlik soatlari” va boshqa idoraviy kengaytirilgan yigʻilishlarda maqsadli koʻrsatkichlarni bajarilishi borasida masʻullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etib boriladi hamda har chorakda Aholini

kichik va oʻrta biznesga keng jalb qilish boʻyicha viloyat hokimligi hamda xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashiga axborot kiritib boriladi.

8. Shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov mavjud ish oʻrinlari boʻyicha aholi bandligini taʻminlashga qaratilgan tadbirlar, shu jumladan boʻsh ish oʻrinlari boʻyicha mehnat yarmarkalarining tashkil etish, kasb-hunarga oʻqitish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish va alohida toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish, bu borada mavjud imkoniyatlardan keng va samarali foydalanish choralarini koʻrib borsin.

Bunda,

mehnat yarmarkalarini samarali tashkil etish, yarmarkalarga aholini koʻproq qismini qamrab olish orqali ularni ishga joylashtirish;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

kasbga tayyorlash kurslarini samarali va tizimli tashkil etish, bunda aholini koʻproq jalb qilish hamda mashgʻulotlarni oʻz vaqtida va samarali oʻtishini doimiy nazorat qilib borish;

mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan oʻtkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilish va kelgusida uni oldini olish boʻyicha taʻsirchan chora-tadbir ishlab chiqish vazifalari yuklansin.

9. Fargʻona shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tursunaliyev) har oyning 15-sanasiga qadar Dastur doirasida yaratilgan yangi ish oʻrinlari va bandligi taʻminlangan aholi toʻgʻrisidagi maʻlumotlarni idoralararo elektron axborot almashinuvi orqali Soliq inspeksiyasiga taqdim etib borsin.

10. Shahar soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev) har oyning 20-sanasiga qadar aholi bandligi va ish oʻrinlari hisobining haqqoniyligini tekshirib, natijalari boʻyicha maʻlumotlarni shahar hokimligi hamda xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashiga kiritib borsin.

11. Fargʻona shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tursunaliyev), Shahar soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev) hisobot davrida yaratilgan ish oʻrinlari soni tahlili jarayonida tegishli sohalar tomonidan yaratilgan ish oʻrinlarini xisobotlarga takroran qoʻshish orqali koʻrsatkichlarni sunʻiy oshirish holatlarini oldini olish boʻyicha taʻsirchan choralarni koʻrib borsin.

12. Savdo-sanoat palatasi shahar boʻlimi (Sh.Karimov), Tadbirkorlik subʻyektlarining huquqlari va qonun manfaatlarini himoya qilish boʻyicha viloyat vakili (M.Poʻlatov), Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (A.Berdiqulov), Investisiyalar, sanoat va savdo boʻlimi (Sh.Saidov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda bir hafta muddatda sayyor qabullar oʻtkazish reja-jadvalini tasdiqlasin, tadbirkorlik subʻyektlari tomonidan koʻtarilgan masalalarni joyida hal qilish choralarini koʻrib borsin va murojaatlar tahlili asosida tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha shahar hokimligi va Bandlik bosh boshqarmasiga har oyda takliflar kiritib borsin.

13. Fargʻona shahar hokimligi birinchi oʻrinbosari (B.Moʻminov), shahar hokimligi matbuot kotibi hamda shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tursunaliyev) bilan birgalikda joriy yilning 1-choragida tashkil etiladigan mehnat yarmarkalari reja-jadvalini ishlab chiqilib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar orqali keng jamoatchilikka maʻlum qilsin.

14. Fargʻona shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tursunaliyev), Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi (E.Nuraliyev) bilan birgalikda mehnat qonunchiligi va mehnat muhofazasi yuzasidan nazorat tadbirlarini samarali tashkil etib borsin, aniqlangan qonunbuzilish holatlarini sabablarini tahlil qilib, kelgusida uni oldini olish boʻyicha taʻsirchan chora-tadbir belgilab borsin.

15. Belgilansinki, har chorak yakuni bilan Fargʻona shahar Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (S.Tursunaliyev)ning hududda sohalar boʻyicha yangi ish oʻrinlarini yaratish hamda aholi bandligini taʻminlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tegishincha xalq deputatlari mahalliy kengash sessiyalarida hisobotlari tinglab borilsin.

16. Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi doimiy komissiyalari raislari maqsadli koʻrsatkichlarni bajarilishi boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish boʻyicha alohida reja ishlab chiqsin hamda doimiy komissiya yigʻilishlarida doimiy ravishda muhokama qilib borsin.

17. Fargʻona shaharda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʻminlash boʻyicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish maqsadida:

2024-yilda yirik va hududiy investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish oʻrinlari prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi;

2024-yilda xizmat koʻrsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini taʻminlash prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi;

2024-yilda qishloq xoʻjaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari shahar Kengashining “Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya boʻyicha” doimiy komissiyasi;

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish prognoz parametrlari bajarilishi yuzasidan - Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat koʻrsatish masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi;

2024-yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga koʻmaklashish va ish beruvchilarni ragʻbatlantirish boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlarning maqsadli koʻrsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni taʻminlash masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi;

2024-yilda aholini biznesga jalb qilishning maqsadli koʻrsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Taʻlim, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari boʻyicha” hamda “Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari boʻyicha” doimiy komissiya doimiy komissiyalari;

2024-yilda davlat maqsadli jamgʻarmalari hisobidan subsidiyalar ajratishning maqsadli koʻrsatkichlari bajarilishi yuzasidan - xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha” doimiy komissiyalari biriktirilsin.

18. Belgilansinki, xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining doimiy komissiyalari tomonidan:

- uch kun muddatda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʻminlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlarni tarmoqlar kesimida nazorat qilish boʻyicha alohida reja ishlab chiqiladi;

- maqsadli koʻrsatkichlar bajarilishi yuzasidan hududlarda monitoring oʻrganishlar olib boriladi;

- masʻul boʻlim va tashkilotlar bilan samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyiladi;

- maqsadli koʻrsatkichlarni toʻliq, samarali va tizimli bajarilishi yuzasidan deputatlik nazorati olib boriladi, bu borada deputatlik soʻrovlaridan samarali foydalangan holda masʻul boʻlim va tashkilotlarga koʻmaklashiladi;

- har oy yakuni bilan keyingi oyning 5 sanasiga qadar maqsadli koʻrsatkichlar bajarilishi yuzasidan doimiy komissiyalar majlislarida tanqidiy muhokama qilib boriladi;

- har chorak yakuni bilan maqsadli koʻrsatkichlarni bajarilishi, bu borada aniqlangan muammo va kamchiliklar yuzasidan tegishli axborotlar xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi sessiyalariga kiritib boriladi.

19. Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi deputatlari Oʻzbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi toʻgʻrisida”gi Qonunida belgilangan huquq va majburiyatlaridan foydalangan holda oʻz saylov okruglarida 2024-yilda shaharda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʻminlash dasturi ijrosi yuzasidan qatʻiy deputatlik nazorati tadbirlarini olib borsin hamda aniqlangan muammolar yuzasidan doimiy ravishda tegishli doimiy komissiyalar majlislari hamda Kengash sessiyalariga kiritib borsin.

20. Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashi 2024-yilda Fargʻona shaharda yangi ish oʻrinlarini yaratish va aholi bandligini taʻminlash dasturi ijrosini oʻz vaqtida, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini oʻrnatsin.

Bunda,

- har oyda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar (tadbirlar)ni monitoring qilgan holda oʻrganib borish, natijalarini mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyalari majlislarida muhokama etib borish;

- har chorak yakuni bilan masʻul rahbarlar, hokimning tegishli oʻrinbosarlarini Kengash sessiyalarida tinglab borsin hamda ular faoliyati samaradorligini baholab borsin.

21. Dastur ijrosiga masʻul boʻlgan boʻlim va tashkilotlar, shahar hokimligi maqsadli koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida, sifatli va tizimlik bajarilishi yuzasidan mahalliy Kengash deputatlari bilan samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻysin.

Bunda, hamkorlikda jamoatchilik nazorati tadbirlari olib boriladi, deputatlar tomonidan olib boriladigan monitoring oʻrganishlarda ularga zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi, shuningdek deputatlik soʻrovlariga aniq va oʻz vaqtida javob berib boriladi.

22. Shahar hokimligi axborot xizmati, telekanallar, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali shahar hududida yangi ish oʻrinlarini yaratish hamda aholi bandligini taʻminlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borsin.

23. Mazkur kengash qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining doimiy komissiyalari raisi hamda shahar hokimining birinchi oʻrinbosari B.Moʻminov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

NAZAROV VOSILJON SHUXRATOVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024 yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash
prognoz parametrlari

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:			sohalar kesimida:											
			Doimiy	Mavsumiy	Vaqtinchalik	**Investisiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga**	*shundan:*		**Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga**	*shundan:*		**Qishloq xo‘jaligida**	*shundan:*		**Qurilish sohasida**	*shundan:*	
							Yirik (tarmoq) investisiya loyihalari	*Xududiy investisiya loyihalari*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*		*Doimiy*	*Mavsumiy*		*Doimiy*	*Vaqtinchalik*
1	Farg‘ona sh.	**15845**	8 784	1 161	5 900	**3 060**	*430*	*2 630*	**10 000**	**5071**	*4 929*	**1 268**	*107*	*1 161*	*1 517*	*546*	*971*

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yilda yirik va hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	***jumladan:***							
			Yirik (tarmoq) investitsiya loyihalari	*shundan:*			**Xududiy investitsiya loyihalari**	*shundan:*		
				Sanoatda	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*		*Sanoatda*	*Xizmat ko‘rsatish*	*Qishloq xo‘jaligi*
1	Farg‘ona shahri	**3 060**	**430**	*400*	*30*		**2 630**	*2 165*	*465*	

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2024-yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hudud lar nomi	JAMI	shundan:		jumladan:																								
			Doimiy	vaqtinchalik	Xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari (yuridik va YATTlardagi yangi ish o‘rni)	Jumladan:		shundan:																	Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish	Jumladan:		Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish
						Doimiy	vaqtinchalik	Moliyaviy xizmatlar	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Transport xizmatlari	Qishloq xo‘jaligi xizmatlari sohasida	Mehmonxona va turizm xizmatlari	Ijtimoiy sohalar		Umumiy ovqatlanish	shundan:		Savdo	shundan:		Maishiy xizmatlar	shundan:		Boshqa xizmat ko‘rsatish	shundan:				
													Ta’lim xizmatlari	Sog‘liqni saqlash xizmatlari		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Vaqtin-chalik		Doimiy	Mavsumiy	
1	Farg‘ona shahri	10000	5071	4929	2500	1361	1139		10	30		50	10	125	50	25	25	400	200	200	4	2	2	1821	909	912	5417	1627	3790	2 083

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2024-yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band qilish
PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		*jumladan:*															
			Doimiy	Mavsumiy	Agro klasterlarda	*shundan:*		Fermer xo‘jaliklarida	*shundan:*		Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish (e-auksion)	*shundan:*		Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish (mavsumiy)	Tomorqada bandlik (mavsumiy)	Pillachilik	*shundan:*		Suv xo‘jaligi obyektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan	*shundan:*	
						doimiy	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*				*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*
1	Farg‘ona shahri	**1 268**	107	1 161	**0,00**			**272**	*30*	*242*	**231**	**77**	**154**	**103**	**130**	**532**		*532*			

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2024-yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish
PROGNOZ PARAMETRLARI

№	Hududlar nomi	JAMI	shundan:		*jumladan:*											
			Doimiy	Mavsumiy	*Uy-joy qurilishi*	*Shundan*		*Sanaot korxonalar qurilishi*	*Shundan*		*Ijtimoiy obyektlar qurilishi*	*Shundan*		*Avtomobil va temir yo‘l qurilishi*	*Shundan*	
						doimiy	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*		*doimiy*	*mavsumiy*
1	Farg‘ona shahri	**1 517**	**546**	**971**	*617*	*201*	*416*	*127*	*46*	*81*	*485*	*196*	*289*	*288*	**103**	**185**

Xalq deputatlari Fargʻona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
6-ilova

2024-yilda bandlik organlari tomonidan aholi bandligiga koʻmaklashish va ish beruvchilarni ragʻbatlantirish boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlarning
MAQSADLI KOʻRSATKICHLARI

№	Hududlar nomi	Jami banlik xizmatlarini koʻrsatish	*jumladan:*						
			Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish	*Haq toʻlanadigan jamoat ishlariga jalb qilish*	*Ishga joylashtirish*	**Subsidiyalar ajratish***	*shundan:*		
							Bandlikka koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan	*Hunarmandchilik va kasanachilikni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan*	*Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan*
1	Fargʻona shahri	**5 081**	*904*	*805*	*2 650*	**722**	*25*	*25*	*672*

** Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan prognoz koʻrsatkichlariga oʻzgartirish kiritilishi mumkin.*

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2024-yilda aholini biznesga jalb qilishning MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	Mas’ul bank	Hududlar	Jami	*shundan,*			
				o‘zini o‘zi band qilish hisobiga	**yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga**	**yangi korxonalar hisobiga**	**Dehqon xo‘jaliklari hisobiga**
1	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB	*Farg‘ona shahri*	*9 030*	*7 000*	*1 000*	*430*	*600*

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining
2024-yil 9-iyuldagi
VI-108-50-11-169-K/24 -son qaroriga
8-ilova

2024-yilda davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan subsidiyalar ajratishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	**Hudud nomi**	**Jami**	*shundan,*		
			Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi	**Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi**	**Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi**
1	Farg‘ona shahri	*3 858*	*3 466,6*	*229*	*162*